

_____ - SONLI MIKROQARZ (EKSPRESS) SHARTNOMASI

_____ yil

Chet el kapitali ishtirokidagi "Hamkorbank" ATB (bundan buyon matnlarda "Kreditor" deb nomlanadi) nomidan yildagi №_____ sonli ishonchnoma asosida harakat qiluvchi bankning _____ boshqaruvchisi/BXO boshlig'i _____ bir tarafdin va (bundan buyon matnda «Qarz oluvchi» deb yuritiluvchi) _____ uyda yashovchi fuqaro _____ (pasport ma'lumotlari: Seriya: _____ № _____ yil, _____ dan berilgan) ikkinchi tarafdin, ushbu shartnomani (bundan buyon matnda shartnoma deb yuritiladi) quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

1.1. Bank Qarz oluvchiga mazkur shartnomada ko'rsatib o'tilgan miqdorda va shartlar asosida mikroqarzni ajratish majburiyatini, qarz oluvchi esa o'z navbatida olingan mikroqarzni belgilangan muddatda qaytarish va pul mablag'laridan foydalanganligi uchun foizlarni to'lash majburiyatini oladi.

1.2. Ilgari olingan kredit (qarz)lar bo'yicha so'ndirilmagan muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lgan taqdirda jismoniy shaxslarga yangi mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish taqiqlanadi.

2. Shartnoma bahosi va hisob-kitob qilish tartibi

2.1 Mikroqarz summasi: _____ so'm.

2.2 Mikroqarzdin foydalanish muddati: _____ oy muddatga.

2.3 Mikroqarz bo'yicha asosiy qarzni qaytarish muddati ushbu shartnomaning ilovasi va ajralmas qismi bo'lgan qaytarish jadvali (1-ilova) asosida amalga oshiriladi.

2.4 Mikroqarz summasining so'nggi qaytarish sanasi: _____

2.5 Mikroqarz bo'yicha foiz stavkasi: Yillik _____ foiz

2.6 Foizlarni to'lash muddati: Mazkur shartnomaga ilova qilingan so'ndirish jadvalida belgilangan muddatda _____ usulida.

2.7 Mikroqarz mablag'i qarz oluvchi nomiga rasmiylashtirilgan plastik kartaga pul o'tkazish yo'li bilan o'tkazib beriladi. Ssuda hisob raqamdan mablag' o'tkazilgan sana kredit ajratilgan sana bo'lib hisoblanadi.

2.8 Qabul qilingan muddatli majburiyatnomalar hamda mazkur shartnoma shartlariga asosan ajratilgan mikroqarzni hamda u bo'yicha foizlarni qaytarish bankning avtoto'lov xizmati, plastik kartochka, naqd pul, pul o'tkazish yo'li, va qonun hujjatlariga zid kelmaydigan boshqa to'lov usullari bilan amalga oshiriladi. Bunda birinchi navbatda jarima va penyalari, muddati o'tgan kredit foizi, muddatli kredit foizi so'ngra kredit tani undiriladi.

2.9 Mikroqarzdin foydalanganlik uchun foizlar ushbu shartnomada belgilangan nominal stavkada mikroqarz qoldig'iga nisbatan kunlik hisoblab boriladi.

3. Tomonlarning huquqlari.

3.1. Qarz oluvchining huquqlari:

3.1.1 Shartnoma va qo'shimcha shartnomalarni imzo qo'ymasdan oldin tanishib chiqishi uchun o'zi bilan olib ketish;

- 3.1.2 Mikroqarzarlar va hisob-kitoblar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi me'yoriy-huquqiy hujjatlari va Bankning ichki me'yoriy hujjatlaridagi o'zgarishlar hakida Bankdan ma'lumot olish;
- 3.1.3 Shartnoma yoki qo'shimcha shartnoma tuzilgandan keyin va pul mablag'lari olingunga qadar bo'lgan davrda mikroqarz olishdan bepul asosda voz kechish;
- 3.1.4 Bankdan shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida yetkazilgan zararlarning o'rnini qoplashni talab qilish;
- 3.1.5 Bankdan shartnomada belgilangan shartlar asosida belgilangan miqdorda mikroqarz mablag'ini o'z vaqtida ajratilishini talab qilish;
- 3.1.6 O'z huquq va majburiyatlari to'g'risida, shu jumladan mikroqarz berish bilan bog'liq barcha xarajatlar haqida ishonchli hamda to'liq axborot olish;
- 3.1.7 Olingan mikroqarz to'lovlarini masofaviy bank xizmatlaridan foydalangan xolda amalga oshirishi mumkin;
- 3.1.8 Mikroqarz uchun to'lovlarni amalga oshirish shaklini o'zi mustaqil tanlash huquqiga ega;
- 3.1.9 To'lov grafigi bo'yicha to'lov kunidan 1(bir) kun oldin mikroqarz to'lovi haqida ogohlantiruvchi SMS xabar jo'natilishiga va bu bo'yicha telefon raqamiga SMS xabar jo'natilishiga;

Qarshi emasman ___(imzo)___ Qarshiman ___(imzo)___

- 3.1.10 Qonun hujjatlarida belgilangan nizoni sudgacha hal qilish usullarini, shu jumladan muzokaralar o'tkazish orqali, qo'llash;
- 3.1.11 Istalgan vaqtda jarima sanksiyalarsiz mikroqarzni muddatidan oldin so'ndirish;
- 3.1.12 Qarz oluvchi tomonidan kreditning asosiy tani bo'yicha oldindan to'lov amalga oshirilganda, qarz oluvchi kelgusidagi asosiy tanidan bo'ladigan to'lovlarning o'zi xohlagan oyidan ushbu summasini chegirib tashlab to'lash huquqiga ega bo'ladi.

3.2. Bankning huquqlari:

- 3.2.1 Qarz oluvchi shartnoma tuzilgan kundan e'tiboran bir oy ichida mikroqarzdin foydalanmagan taqdirda, shartnomani bekor qilish haqida ikkinchi tarafni yozma ravishda xabardor etish orqali shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish;
- 3.2.2 Qarz oluvchi tomonidan ushbu shartnomaning 6.4-bandida ko'rsatilgan shartnomani jiddiy buzish holatlari sodir qilinganligi aniqlagan taqdirda, Bank shartnomani muddatidan oldin bir tomonlama yoki sud tartibida bekor qilib, kredit qarzdorliklarini undirish va undiruvni kredit ta'minotiga qaratishga haqli;
- 3.2.3 Agar mikroqarz ta'minoti sifatida garovga qo'yilgan mulkka(kafil) shikast yetkazilganda, turli sabablarga ko'ra yaroqsiz xolga kelib qolganda yoki mikroqarz ta'minoti sifatida uchinchi shaxslar kafilligi olingan xolda kafil to'lovga qobiliyatini yo'qotgan taqdirda ya'ni ishsiz qolganda, vafot etganda yoki turli sabablarga ko'ra mehnatga yaroqsiz bo'lgan xollarda qarz oluvchidan 10 (O'n) kun ichida bankdagi mikroqarz ta'minoti turini likvidli garovga yoki likvidli kafillikka yoki qonunda belgilangan boshqa ta'minotga almashtirishni talab qilishga haqli.
- 3.2.4 Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni qarz oluvchidan so'rab olish;
- 3.2.5 Qarz oluvchi tomonidan atayin noto'g'ri bo'lgan hujjatlar taqdim etilganda yoki qonun hujjatlariga muvofiq so'raladigan hujjatlar taqdim etilmaganda, qarz oluvchi joylashgan yeri (pochta manzili) bo'yicha o'rganish, jismoniy shaxs o'zining joylashgan yeri (pochta manzili) bo'yicha mavjud bo'lmaganida hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan hollarda mikroqarz ajratishni to'xtatib qo'yish.

4. Tomonlarning majburiyatlari.

4.1. Qarz oluvchining majburiyatlari:

4.1.1 Mikroqarzni va u bo'yicha hisoblangan foizlarni mazkur shartnomaga ilova qilingan qaytarish jadvalida (**1-ilova**) belgilangan muddatlarda o'z vaqtida qaytarish;

4.1.2 Mikroqarzdin foydalanish jarayoni davomida mikroqarzlashning asosiy tamoyillari: muddatlilik, qaytarishlilik, to'lovlilik, mikroqarz qaytarilishining ishonchligi va ta'minlanganligiga rioya qilish;

4.1.3 O'zining ish joyi, yashash joyi, familiyasi va ismi o'zgarganda va mazkur shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan boshqa holatlar to'g'risida 10 kun ichida Bankka xabar berish;

4.1.4 Agar mikroqarz ta'minoti sifatida garovga qo'yilgan mulkka shikast yetkazilganda, turli sabablarga ko'ra yaroqsiz xolga kelib qolganda yoki mikroqarz ta'minoti sifatida uchinchi shaxslar kafilligi olingan xolda kafil to'lovga qobiliyatini yo'qotgan taqdirda ya'ni ishsiz qolganda, vafot etganda yoki turli sabablarga ko'ra mehnatga yaroqsiz bo'lgan xollarda 10 (O'n) ish kuni ichida bankka xabar berishi shart va ushbu mikroqarz ta'minoti turini likvidli garovga yoki likvidli kafillikka yoki qonunda belgilangan boshqa ta'minotga almashtirish;

4.1.5 Mijozga SMS xabar yuborish uchun taqdim etilgan mobil telefon raqami o'zgarganda ushbu o'zgarish haqida bankni xabardor qilish va yangi mobil telefon raqamini bankka taqdim etish, mobil telefon raqami o'zgariganligi haqida bankni o'z vaqtida ogohlantirmaganligi sababli kelib chiqadigan ya'ni, SMS xabar bankka berilgan dastlabki telefon raqamidan yangi foydalanuvchiga yuborilganligi oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlar uchun qarz oluvchining o'zi javobgar hisoblanadi.

4.1.6 So'ndirish jadvaliga nisbatan ortiqcha to'langan mablag' Qarz oluvchi tomonidan kelgusida keladigan oylarning aniq bir yoki bir nechtasi davomida so'ndirish rejalashtirilgan bo'lsa, u holda Qarz oluvchi to'lovni amalga oshirishdan 3 kun oldin Bankka bu haqida yozma murojaat qiladi.

4.1.7 Qarz oluvchi mikroqarz va unga hisoblangan foizlar to'lovini avtomat ushlab qolinishi uchun plastik kartasini avto to'lov xizmatiga ulash uchun taqdim etishi shart. Kelgusida shaxsiy bank plastik kartasi o'zgartirilganda 3 kun muddatda avto to'lov tizimiga ulash uchun bankni xabardor qilish majburiyatini oladi.

4.1.8 Mikromoliyaviy xizmatdan foydalanish va shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni taqdim etishi.

4.1.9 Majburiyatlarni shartnomada belgilangan tartibda va muddatlarda bajarish.

4.2. Bankning majburiyatlari:

4.2.1 Olingan mikroqarzni hisobini yuritish uchun Qarz oluvchiga mikroqarz hisob raqamini ochish.

4.2.2 Qarz oluvchiga mazkur shartnomada ko'rsatilgan miqdorda va shartlarda mikroqarz berish.

4.2.3 Qarz oluvchini Bank tomonidan mikroqarzni muddatidan ilgari undirish holati va sabablari haqida xabardor qilish.

4.2.4 Qarz oluvchining huquq va majburiyatlari to'g'risida, shu jumladan mikroqarz berish bilan bog'liq barcha harajatlar haqida qarz oluvchiga ishonchli hamda to'liq axborotni ma'lum qilishi;

4.2.5 O'n ish kuni ichida qarz oluvchi tomonidan berilgan ariza va Qarz oluvchiga mikroqarz berilganligini tasdiqlovchi hujjat hamda bir ish kuni ichida mikroqarz shartnomalari bo'yicha qarz oluvchi tomonidan majburiyatlari to'liq bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etish.

4.2.6 O'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmasligi oqibatida, shu jumladan qarz

oluvchiga nisbatan majburiyatlarni buzganligi uchun qo'llaniladigan neustoyka (jarima, penya) va ularning natijasida qarz oluvchining xarajatlari summasi oshishi ehtimoli mavjudligi haqida ogohlantiriladi.

4.2.7 Mikroqarz shartnoma bo'yicha Qarz oluvchini muddati o'tkazib yuborgan qarzdorlikni qaytarish majburiyatlari bajarilmaganligi holati, muddati, summalari, tarkibi va oqibatlari haqida habardor qilishi, qarz oluvchidan muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelishi sabablari haqida so'rash.

4.2.8 Qarz oluvchi mikroqarz shartnomasi bo'yicha qarzning asosiy summasini qaytarish va (yoki) foizlarni to'lash muddatlarini buzganda, bank tegishli mikroqarz shartnomasida nazarda tutilgan usulda nizoni sudgacha hal qilish yuzasidan o'z talabnomasini qarz oluvchiga yetkazadi.

4.2.9 Mikroqarz shartnomasi bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganda, Kreditor Qarz oluvchi zimmasidagi qarz yuki yanada oshib ketishining oldini olish maqsadida muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelgan sanadan boshlab 7 (etti) kalendar kuni davomida Qarz oluvchi bilan shartnomada kelishilgan har qanday aloqa bog'lash usullaridan, shu jumladan elektron aloqa vositalaridan yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa usullardan foydalanib, Qarz oluvchiga muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganligi xaqida (taqdim etilgan so'ndirish jadvalidan kelib chiqqan holda) xabar beradi.

4.2.10 Qarz oluvchining va (yoki) garovga qo'yuvchining sug'urta kompaniyasi va (yoki) baholovchini tanlash huquqini cheklamaydi.

4.2.11 Qarz oluvchi tomonidan shartnomaga asosan kredit (qarz) bo'yicha qarzdorlik summasini to'lash majburiyati to'liq bajarilgan sanadan boshlab uch ish kunidan kechiktirmagan holda mazkur qarz bo'yicha:

- garovda turgan mulkni taqiqdand chiqarish;
- garov sifatida bo'lgan mol-mulkka nisbatan bankning huquqlari to'g'risidagi yozuvni garov reyestrindan chiqarish choralarini ko'radi.

4.2.12 Qarz oluvchiga mikroqarz shartnomasida nazarda tutilgan mikroqarzni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortgan taqdirda, ushbu mikroqarz bo'yicha mablag'lar berishni to'xtatib qo'yish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmasdan Qarz oluvchiga mikroqarz berish to'xtatilganligi va uning sabablari yuzasidan yozma xabarnoma yuboradi.

4.2.13 Qarzдор tomonidan kreditning joriy to'lovi uchun kreditni qaytarish jadvalida belgilangan summaga nisbatan ko'p mablag' kelib tushsa, u holda bank kelib tushgan mablag'ning ortiqcha qismini qarz oluvchi kreditining asosiy qarzini so'ndirishga yo'naltiradi hamda kelgusi ish kunidan qoldiq summaga nisbatan foiz hisoblaydi.

5. Tomonlarning javobgarligi.

5.1. Qarzdorning javobgarligi:

5.1.1 Asosiy qarzni qaytarish muddati kechiktirilganda (muddati o'tgan mikroqarz), Qarzдор Bankka butun kechiktirilgan davr uchun shartnomaning 2.5-bandida belgilangan foiz stavkasining 1,5 baravar oshirilgan miqdorida yuqori foiz to'laydi.

5.1.2 Asosiy qarzni belgilangan muddatda to'lamaganligi va ular bo'yicha muddati o'tgan summalar vujudga kelgani uchun Qarzдор Bankka kechiktirilgan to'lovning xar bir kuni uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0.1 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

5.1.3 Foizlarni belgilangan muddatda to'lamaganligi va ular bo'yicha muddati o'tgan summalar vujudga kelgani uchun Qarzдор Bankka kechiktirilgan to'lovning xar bir kuni

uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0.1 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi

5.1.4 Qarzdorlik bo'yicha hisoblangan foizlar va neustoykalarining eng ko'p summasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan miqdordan oshib ketmasligi lozim.

5.1.5 Qarz oluvchi mikroqarz olish uchun bankka qalbaki va yolg'on ma'lumotlar asosida rasmiylashtirilgan hujjatlarni taqdim qilgan taqdirda qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

5.2. Bankning javobgarligi:

5.2.1 Mazkur shartnomada ko'rsatilgan muddatda mikroqarz ajratilmaganda, Bank Qarz oluvchiga kechiktirilgan to'lovning har bir kuni uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,2 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan oshmagan miqdorda penya to'laydi.

5.2.2 Shartnoma bo'yicha hisoblangan penya va jarimalarni to'lash, taraflarni shartnomada ko'rsatilgan o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

6. Mikroqarz qaytarilishining ta'minlanishi va shartnomaning amal qilish muddati, shartnomani o'zgartirish va bekor qilish tartibi hamda boshqa qoidalar.

6.1. Mazkur shartnoma asosida ajratilgan mikroqarzni qaytarilishi uchun asosiy ta'minot

6.2. Ushbu shartnoma imzolangan kundan e'tiboran kuchga kirib, taraflar o'z majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amalda bo'ladi.

6.3. Ushbu shartnomaning shartlarini o'zgartirish yoki uni bekor qilish qo'shimcha kelishuv bitimi tuzish orqali amalga oshiriladi. Mazkur shartnomaga kiritiladigan har bir o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda tuzilib, taraflarning vakolatli vakillari tarafidan imzolanganidan so'ng haqiqiy hisoblanadi. Barcha o'zgartirish, qo'shimchalar va ilovalar mazkur shartnomaning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi.

6.4. Qarz oluvchi tomonidan quyidagi holatlardan hech bo'lmasa bittasiga yo'l qo'yilgan taqdirda shartnomani jiddiy buzish deb hisoblanadi va bunda Bank shartnomani, qo'shimcha shartnomani bir taraflama yoki sud tartibida muddatidan oldin bekor qilishi hamda kredit va unga hisoblangan foizlarni muddatidan oldin qaytarib olishi mumkin:

- qarz oluvchi yoki kafilning moliyaviy holati yomonlashganligi;
- qarz oluvchi tomonidan shartnoma tuzishda yoki kredit operatsiyalarini bajarish vaqtida Bankka noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etish faktlari aniqlanganda;
- ta'minot holatining yomonlashishi, uning o'g'irlanishi, talon-toroj qilinishi, likvidligining pasayishi, bozor konyunkturasi narxlarining kamida 25 foizga pasayib ketishi yoki boshqacha holatlar natijasida mikroqarz ta'minlanmay qolish xavfining vujudga kelishi, basharti ta'minotni o'zgartirish yoki qo'shimcha ta'minot taqdim etish bo'yicha Bank talabining bajarilmasligi;
- kreditni qaytarish jadvali bo'yicha to'lov talabini kamida uch va undan ortiq marotaba buzgan taqdirda (*bunda kredit oluvchi tomonidan to'lovlarni shartnomada belgilangan kundan kechiktirganligi uchun penya to'laganligi olingan kreditni muddatidan oldin qaytarmaslikka asos bo'lmaydi*);
- kredit va unga hisoblangan foizlarni kreditni qaytarish jadvalida belgilangan

muddatdan 30 kun va undan ortiq muddatga sababsiz kechiktirilganida.

Bunday holatlarda Bank oldindan 10 kundan ko'p bo'lmagan muddat ichida Kredit oluvchini xabardor qilishi lozim.

6.5. Shartnoma va unga ilova bir xil kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzilib, taraflarda bir nusxadan qoldirildi.

6.6. Mijozga bank xizmatini taklif qilish maqsadida ushbu shartnomaning amal qilish muddati davomida, shuningdek shartnoma muddati tugagandan so'ng 1 yil mobaynida mijozning har qanday manbalardagi ma'lumotini olib qayta ishlagan holda taxlil o'tkazishga mijoz o'z roziligini beradi.

7. Maxfiylik

7.1. Mazkur shartnomani tuzish va bajarish vaqtida taraflar bir-biridan olgan barcha ma'lumotlar maxfiy axborotlar deb tan olinadi.

7.2. Shartnomani tuzish va shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish chog'ida boshqa tarafning tijorat siri hisoblangan maxfiy axborotlar va ma'lumotlarni axborot egasining yozma roziligisiz oshkor qilmaslik majburiyatini oladi.

7.3. Mazkur talab shartnomaning amal qilish muddatiga hamda shartnoma muddati tugagan vaqtdan boshlab 3 yil mobaynida amal qiladi.

7.4. Ushbu talablarni buzgan taraf buning oqibatida ikkinchi tarafga yetkazilgan barcha zararni to'liq hajmda qoplaydi.

8. Fors-major holatlari

8.1. Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari - bu taraflarning irodasi, xohishiga bog'liq bo'lmagan tabiat hodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron va hokazo), ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko'zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar), xalqaro, banklararo va Bankning elektron to'lov hamda ta'minot tizimidagi nosozlik, Bankning dasturiy ta'minot tizimiga qilingan tahdid (hujumlar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda taraflarga majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlardir.

8.2 Fors-major holatlari yuzaga kelgan vaqtda taraflar ushbu holatlar bartaraf etilguniga qadar shartnomaviy majburiyatlarini bajarishdan ozod bo'ladi. Fors-major holati 90 kun mobaynida bartaraf etilmagan taqdirda shartnoma bekor qilinishi mumkin.

8.3 Fors-major holatlari boshlanganligi yoki yakunlanganligi haqida bir taraf ikkinchi tarafni 3 ish kuni ichida bu haqda yozma ravishda xabardor qilishi shart. Xabarnomalar barcha aloqa vositalari orqali yuborilishi mumkin.

9. Korrupsiyaga qarshi kurashish.

9.1. Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajarishda ikkinchi tomonning qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari, qimmatliklar yoki xizmatlar taklif qilishi, berishi, taqdim etishi taqiqlanadi.

9.2. Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajarishda qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida shartnomaning boshqa ishtirokchilari tomonidan bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari, qimmatliklar yoki xizmatlar taqdim etish bo'yicha taklifini rad qilishi lozim.

9.3. Agar shartnoma ishtirokchilarida ushbu shartnoma shartlarini bajarish bilan bog'liq korrupsion harakat sodir etilganligi to'g'risida ma'lumot, shubha, shubhaga asos bo'luvchi dalilga ega bo'lsa, bu to'g'risida ikkinchi tomonga yozma shaklda xabar berish majburiyatini oladi.

9.4. Xabarni olgan tomon haqiqatda korrupsion harakat sodir etilmaganligini yoki sodir etilmasligi to'g'risida tasdiqqa ega bo'lgunicha ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni to'xtatib turish huquqiga ega.

9.5. Pora berish evaziga ikkinchi tomon vakilini, affillangan shaxsini, xodimini yoki shartnomaning boshqa ishtirokchilarini shartnoma shartlarini bajarishda o'ziga og'dirib olgan tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplab berish majburiyatini oladi.

10. Nizolarni hal etish tartibi.

10.1. Taraflar mazkur shartnomani bajarish vaqtida yuzaga kelgan kelishmovchilik yoki nizolarni muzokara yo'li bilan hal etadilar.

10.2. O'zaro kelishuv imkoniyati bo'lmaganda, huquqi buzilgan taraf tomonidan yuborilgan talabnoma yoki ogohlantirish xatiga ikkinchi taraf mazkur talabnoma yoki ogohlantirish xatida ko'rsatilgan muddat ichida javob berishi lozim.

10.3. Talabnoma yoki ogohlantirish xati tarafga shaxsan topshirish, elektron pochta manziliga yuborish yoki pochta aloqa xizmati orqali buyurtma xat bilan yuborish yo'li bilan amalga oshiriladi.

10.4. Tinch yo'l bilan hal etilmagan nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda filial/bo'linma joylashgan hududdagi sudga hal etiladi.

11. Tomonlarning manzillari, to'lov rekvizitlari, imzolari.

| BANK | QARZ OLUVCHI |
|----------------------|-------------------------|
| Manzil: | Manzil: |
| MFO: | Pasport ma'lumotlari: |
| BANK: | Seriya: _____ № _____ |
| Boshqaruvchi: | Kim tomonidan berilgan: |
| _____ | Qachon berilgan: |
| (imzo) | Fuqaro: |
| www.hamkorbank.uz | _____ |
| Tel: 0-800-1-200-200 | (imzo) |
| M.U _____ yil | _____ yil |

Hurmatli qarz oluvchi! Kredit va unga hisoblangan foizlar o'z vaqtida to'lanmagan taqdirda Sizning kredit tarixingizda majburiyatlar o'z vaqtida bajarilmaganligi to'g'risida ma'lumotlar shakllanadi va bu esa o'z navbatida kelgusida kredit tashkilotlaridan kredit olish imkoniyatingizni pasayishiga sabab bo'lishi mumkin.